

TDV İSAM
Kütüphanesi Arşivi
No TK/39.1

June - 12

Hurmatli Timur bey.

Sizga sâğlik va işlaringizda yutiqlar bolsin, Avmin.

Maniñ körüb ciqışim ucun yubârgan ~~manâ~~xx maqâlañgizni xaligaca
tâmâmlamadim . Cunki birincidan maniñ Inglizcam çuda zayib ikkincidan
kötilmagan işar bilan maşğul bolib qâlib vaqtıla sizga maktubda
yâzâlmadim . Buniñ ucun uzur tilayman.

Oğlim Erol Tâğasiniñ âldiga (Sanfrans^sicoga) ga ketgan edi.
Kelasi hafta Turapâşa ham Sanfrans^sico ga bir ây ucun ketib-keladi.

Agar istasañgiz hafta âxirlarida bizga kela bilirsiz man boş bolaman.
Man haligaca Vacation qilganim yoq. Turapaşa kelgandan soñ Vacationimni
âlmaqimanki sizda kelarsiz birga Vacation qilârmiz.

Sizga maktub yâzişda kecikkanim ucun takrâr uzur tilayman.

Adham Yaşin
Hurmat bilan Adham Yaşin

Turapaşa va qizim Nigârdan salâm va hurmatlar.

TDV İSAM
Kütüphanesi Arşivi
No TK/39.2

MARCH - 28

Muhtaram Timur bey.

Sizga sâğlik va oqişlaringizdan muvâffiqiyatla tlayman.

Men, siz bilan soñgi bâr Nyu Yorkda korişganimda, April âyida

Vaşiñtonga kelaçagingizdan baxs etmişdingiz.

Bu maktubni yâzişdan maqsadim, agar kelmakci bolsangiz mayli poyizda yâkiy avtobusda, Vaşiñtonga kelgandan soñ menga xabar bersangiz men bârib sizni âlişim mumkin.

Cunki birincidan Hotelda qâlâlmaysiz, ikkincidan Vaşiñton D.C. bilan biz turgan çâyniñ ârasi anca uzâq, ucincidan siz korişadigan kişilar ham biz turgan tarafda turadilar.

Men, umuman cuşdan keyin sâat 3 dan bâşlab uyda bolaman. Meniñca eñ yaxşisi Cuma kuni cuşdan keyin sâat 3-4 larda kelsangiz yaxşi boladi yana öziñiz oylab körur siz.

Maktubga çavâbni bizniñ uy adresimizga yâzarsiz.

A. Yaşin
Hurmat bilan Adham Yaşin.

Ğulâmiddin Pahtani korsiñiz mindan salâm aytiñ.

Bizniñ uy telefon 671-9158

April - 23

Hurmatli Timur Bey.

Sizga sâğlik va dareslaringizda muvâffiqiyatlar bolsin.

Bizda ikki kun qâlganingiz ucun taşakkur bildirib yubârgan kârtingizni âlib mamnun boldim.

Men, siz ucun alâhidan ~~bir~~ bir mehmândustlik kôrsata almadim deb blaman. Bolsa-bolsa sizga nisbatan bir vatandâşlik munâsabatda boldim, U qadar.

Qacan bolmasin Vaşinqtonga kelar ekansiz, hec târtinmasdan (cekinmasdan) toğri bizga kelsangiz, meni va ~~meni~~ meniñ âilamni xursand qilgan bolasiz.

Meniñ qolimdan keladigan har qanday işingizga yârdam eta blsam ayni zâmânda özim ham mamnun bolirim. Yâz ta'tilingizda kelişingizni kôtamiz.

Âilaca salâm va hurmat bilan Adham Yaşin.